

## PEDAGOGIK MADANIYAT VA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING DIAGNOSTIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI INTEGRATSION OMILI

**Qodirova Xalimaxon**

Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”

kafedrasi v/b dotsenti, (PhD)

E-mail: [khalimakadyrova2804@gmail.com](mailto:khalimakadyrova2804@gmail.com)

<http://orcid.org/0000-0002-0975-8307>

### ANNOTATSIYA

Maqolada pedagogik madaniyat va pedagogik diagnostika bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirishdagi integratsion omili ekanligi pedagogik madaniyat va pedagogik diagnostika o‘zaro chambarchasligi ta’limni samaradorligi ta’minalashda pedagogik diagnostikani tashkil qilishning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining madaniyati o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilimlarni taqdim etish, intellektual, kognitiv qobiliyatni, emotsional-irodali, samarali-amaliy sohani, shu bilan bir qatorda psixikani rivojlantirish, o‘quvchilarni odob-axloq qoidalari, jamiyatda o‘zini tutish malakalarini tarkib toptirish asosida o‘zlashtirishni ta’minalash, tevarak-atrofdagi voqelikka estetik munosabatda bo‘lish malakasini rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy kuchi, qobiliyati va sog‘lig‘ini mustahkamlashga doir malakalarini rivojlantirish kabi funksiyalarini bajarishi, pedagogik madaniyatning aksiologik, texnologik, shaxsiy, ijodiy tarkibiy qismlar pedagogik faoliyatni o‘zlashtirish mexanizmini ijodiy hatti-harakat mobaynida namoyon etishi, tashxislashning zaruriyati, maqsadli diagnostikani amalga oshirish, tashxis qo‘yish sharoitlari, o‘qituvchi faoliyatini o‘rganish izchilligi va uzuksizligi, o‘qituvchining olingan natijalarga analistik munosabati, rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘plamini o‘rganishga imkon beradigan diagnostika usullaridan foydalanish shartliligini nazarda tutuvchi diagnostikaga kompleks yondashuv tamoyillari, pedagogik diagnostika obyektini tashqi sharoitlar bilan birgalikda rivojlanayotgan shaxs sifatida aniqlash rivojlanish natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik, natijani aniqlay oladigan pedagogik sharoitlar, olingan natjalarni juda ehtiyyotkorlik bilan izohlash muhimligi, diagnostik madaniyatning namoyon bo‘lishining tashqi (ob’ktiv) va ichki (sub’ektiv) jihatlari, yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, pedagogik madaniyat, pedagogik diagnostika, diagnostik madaniyat, aksiologik, texnologik, shaxsiy, ijodiy, diagnostika tamoyillari,

интеллектуал, когнитив, квалификационные, эмоционально-личностные, самореализующиеся, оценочные компетенции будущих учителей начальных классов.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА - ИНТЕГРАТИВНЫЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Кадырова Халимакхон**

(PhD), и/о доцент кафедры “Педагогика начального образования”

ТГПУ им. Низами

E-mail: [khalimakadyrova2804@gmail.com](mailto:khalimakadyrova2804@gmail.com)

<http://orcid.org/0000-0002-0975-8307>

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается научная характеристика различных форм диагностической культуры (педагогической, психолого-диагностической, духовно-этической, коммуникативной, технологической, этнопедагогической) будущих учителей начальной школы, качественные характеристики диагностической культуры, общий, специальный и индивидуальный по содержанию, системной организации педагогической деятельности и реализации необходимых условий, процесса формирования диагностической культуры путем внедрения решения проблемных педагогических диагностических задач в наиболее эффективно реализуемые проблемные исследования в процессе обучения, методологические принципы (антропология, (гуманитарные принципы, профессионализм, баланс объективного и субъективного).

**Ключевые слова:** педагогика, психология, диагностика, духовность, этика, общение, технология, этнопедагогика, культура, диагностика, диагностическая культура, антропология, гуманизм, профессия, объективное и субъективное.

## **PEDAGOGICAL CULTURE AND PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC FACTOR OF INTEGRATION IN THE FORMATION OF DIAGNOSTIC CULTURE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS**

**Kadyrova Khalimakhan**

(PhD), a/a professor of the department of “Pedagogy of Primary Education”

TSPU named after Nizami

E-mail: [khalimakadyrova2804@gmail.com](mailto:khalimakadyrova2804@gmail.com)

<http://orcid.org/0000-0002-0975-8307>

## ABSTRACT

Pedagogical culture and pedagogical diagnostics are an integrative factor in the formation of the diagnostic culture of future primary school teachers. The interaction of pedagogical culture and pedagogical diagnostics is an important starting point for the organization of pedagogical diagnostics in ensuring the effectiveness of education. The culture of the class teacher is to provide knowledge that serves the development of students' worldview, intellectual, cognitive abilities, emotional-characteristic, effective-practical spheres, as well as psychological development, students' moral rules, in society. to behave ensuring mastery of skills on the basis of composition, developing skills of aesthetic attitude to the surrounding reality, performing such functions as developing skills to strengthen physical strength, abilities and health of students of small school age, axiology of pedagogical culture , technological, personal, creative components, mechanisms of mastering pedagogic activity, manifestation of creative behavior in the medium, necessity of diagnosis, implementation of targeted diagnosis, conditions of diagnosis, accuracy and continuity of learning of educational activities, teacher's analytical attitude to the obtained results, the analytical attitude of the teacher to the obtained results, the conditions for using diagnostic methods that allow studying a set of development indicators, the principles of a comprehensive approach to diagnostics, the relationship between the development results of identifying the object of pedagogical diagnostics as a person who develops together with external conditions , the pedagogical conditions that can determine the result, the importance of very careful interpretation of the obtained results, the external (objective) and internal (subjective) aspects of the typical division of diagnostic culture are highlighted.

**Keywords:** culture, pedagogical culture, pedagogical diagnostics, diagnostic culture, axiology, technology, personal, creative, diagnostic principles, intellectual, cognitive abilities, emotional-physical, effective-practical, students' morals.

Respublikamiz so‘ngi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’limni insonparvarlashtirish, raqobatdosh boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash, xorijiy tajribalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “... pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash”[1] ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlar yaratildi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sezilarli darajada o‘zgartirib, qayta ko‘rib chiqish davrida zamonamizning dolzarb muammolarini o‘rganish yangi uslubiy assoslarni izlashni taqozo etadi. Pedagogik muammolarni korreksiyalashda turlicha zamonaviy yondashuvlarning xilma-xilligini inkor qilmagan holda tadqiqotimizda pedagogik bilimlar mazmun va mohiyatini madaniy xususiyatlarini izchil, jamiyat madaniyatining ma’lum bir darajasini rivojlantirish tamoyiliga rioya qilishni maqsad qilganmiz. Shu sababli turli xil pedagogik voqeliklarni tadqiq etishda madaniyatli yondashuvni yoritishga e’tibor qaratildi.

Pedagog olim M.Jumayev “O‘quv jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik madaniyatini tarbiyalash” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida “Pedagogik madaniyat” tushunchasi haqida mamlakatimizdan eng birinchilardan tadqiq etgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini ifodalab, pedagogik madaniyat go‘yoki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik faoliyatining sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi; pedagogik madaniyat bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchilari tafakkurining rivojlanishiga ta’sir etadi; pedagogik madaniyat o‘zida yakun bilan birga o‘quv-tarbiya faliyatida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shu bilan bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning qayta o‘zgarish jarayonini ifodalaydi[5].

I.M.Model fikriga ko‘ra, «Pedagogik madaniyat» pedagogik faoliyat madaniyatining o‘ziga xos xususiyatidir. Bundan tashqari, pedagogik madaniyat moddiy madaniyat elementlarini va ma’naviy madaniyatni ajralmas tarzda birlashtiradi. Tarbiyachilik kasbi jamiyat tomonidan ma’lum bir kasbiy faoliyat turida o‘zlashtirilganligi sababli ijtimoiy tajribani maqsadli ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatish zaruriyatini qondirish uchun yaratilgan[28].

I.F.Isayevning qarashlariga ko‘ra, “Pedagogik madaniyat o‘z kasbining mutaxassis bo‘lgan yetuk o‘qituvchi shaxsining ajralmas qismi hisoblanib, sifatli pedagogik faoliyatning shartini inobatga olgan holda, o‘qituvchining pedagogik malakasining mujassamlashtirilgan natijasi va kasbiy jihatdan o‘zing takomillashtirish maqsadiga muvofiq taqdim etiladi. Pedagogik madaniyat pedagogik qadriyatlar va texnologiyalarni bilish, optimallashtirish, tarkib toptirishni nazarda tutuvchi kasbiy pedagogik faoliyat hamda muloqotning turli xil tiplarida o‘qituvchi shaxsini ijodiy jihatdan o‘zini anglab yetishining ko‘rsatkichi va usuli tarzida hizmat qiladi”[24].

Pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo‘lib, unda ta’limning ma’naviy va moddiy qadriyatları, shuningdek, avlodlar almashinuvining tarixiy jarayoni, shaxsnı ijtimoiylashtirishga xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan ijodiy pedagogik faoliyat usullari hisoblanadi[18].

Shunday qilib, pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo‘lib, unda ta’limning ma’naviy va moddiy qadriyatları, shuningdek, avlodlar

almashinuvi, ijtimoiylashuvining tarixiy jarayoniga xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan ijodiy faoliyat usullari mavjud deb hisoblash qonuniydir [18,26].

Pedagogik madaniyat – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion ta’lim muhitida doimiy rivojlanishidagi pedagogik jihatdan nazariy bilimlarni mukammal egallashini tavsiflovchi umumiy madaniyatning o‘zaga xos muhim tarkibiy qismi ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining madaniyati quyidagi ko‘rinishdagi funksiyalarini bajaradi:

- o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishga hizmat qiluvchi bilimlarni taqdim etish;
- intellektual, kognitiv qobiliyatni, emotsional-irodali, samarali-amaliy sohani, shu bilan bir qatorda psixikani rivojlantirish;
- o‘quvchilarni odob-axloq qoidalari, jamiyatda o‘zini tutish malakalarini tarkib toptirish asosida o‘zlashtirishni ta’minalash;
- tevarak-atrofdagi voqelikka estetik munosabatda bo‘lish malakasini rivojlantirish;
- kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy kuchi, qobiliyati va sog‘lig‘ini mustahkamlashga doir malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Pedagogik madaniyatning quyidagicha tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- aksiologik tarkibiy qism insoniyat daxldorligi bilan asosida yaratilgan, ta’limni rivojlantirishning mavjud bosqichida ajralmas pedagogik jarayonga o‘ziga xos tarzda kiritilgan pedagogik qadriyatlar majmui asosida shakllangan;
- texnologik tarkibiy qis o‘qituvchining pedagogik jarayondagi usullarini qamrab oladi;
- shaxsiy-ijodiy tarkibiy qism pedagogik faoliyatni o‘zlashtirish mexanizmini ijodiy hatti-harakat mobaynida namoyon etishini ko‘rsatib beradi.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchining individualligini kamchiliklarsiz ko‘rinishida ifodalaydi. O‘qituvchining pedagogik madaniyati diagnostik madaniyat deb nomlanuvchi fenomonning vujudga kelishida mutlaqo tabiiy holda aks etadi.

F.B.Valixo‘jayeva o‘z tadqiqotlarida, pedagogik diagnostika pedagogik diagnoz qo‘yish haqidagi fan ekanligi, bunda diagnoz ko‘rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalaridan iboratligi aytib o‘tgan [19].

O.V.Almazovaning ta’riflashicha, pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig‘idagi soha bo‘lib, bola shaxsi, individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganadi [17].

O.A.Fadeyeva, S.V.Safonova, Ye.Ye.Leonovalar fikricha, pedagogik diagnostika obyektini tashqi sharoitlar bilan birgalikda rivojlanayotgan shaxs sifatida aniqlash juda muhimdir:

1. Pedagogik jarayonning tashqi pedagogik voqelikka boradigan tarkibiy qismlari va ular belgilagan rivojlanish natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida ilmiy asoslangan nuqtai-nazarga ega bo‘lish.

2. Pedagogik faoliyat natijalarini u yoki boshqa natijani aniqlay oladigan pedagogik sharoitlar bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqish.

3. Tadqiqot obyekti sifatida harakat qiladigan shaxsning manfaatlarini va huquqlarini doimo hisobga olgan holda, olingan natijalarni juda ehtiyyotkorlik bilan izohlash [27,30,31].

V.V.Grishin, G.N.Ibragimova, D.A.Choriyevalarning “Ta’lim jarayonida psixodiagnostika usullari” asarida yozilishicha, “Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda diagnostika obyekti bu shaxsiyatning shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy mikro muhit bilan o‘zaro munosabatlar tizimida rivojlanayotgan shaxsdir. Ijtimoiy-pedagogik diagnostika obyekti uning asosiy va muhim tarkibiy qismidir. Ijtimoiy-pedagogik diagnostika obyektiga chiqish diagnostika qo‘yilgan narsa haqidagi savolga javobni anglatadi, ya’ni ijtimoiy-pedagogik diagnostika diagnostika qidirushi o‘tkaziladigan pedagogik makonning ta’rifidir” degan fikrni ilgari surganlar [20,23].

I.Yu.Gutnik o‘z tadqiqotlarida, pedagogik diagnostikani quyidagicha tushuntiradi: biror insonning hayot sohasini o‘zlashtirishi vazifasini, ya’ni to‘g‘riligini aniqlash, shaxsning harakatlanish usullari va bu harakatni yengillashtiradigan usullarni yuklaydi. Ushbu muammoning yechimi ijtimoiy-pedagogik diagnostika hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsni rivojlanishi, uning rivojlanishiga olib keladigan tarbiya bilan belgilanishi pedagogik diagnostika uchun asosdir [36].

M.A.Yerofeyeva, O.I.Karpova pedagogik-psixologik diagnostikaning hozirgi kundagi o‘rni va ahamiyati muhimligini ta’kidlaydilar [22].

Pedagogik diagnostikani tashkil qilishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

– tashxisning yo‘nalishi uni amalga oshirishdagi tashkiliy shakllar, vositalar va usullarni pirovard maqsadga muvofiqlashtirish zaruriyatida ifodalanadi;

– o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish fonida o‘qituvchilarning professional talablarini qondirish;

– maqsadli diagnostika uning shakli va tarkibini o‘qituvchilarning individual yoki guruh xususiyatlariga qarab, jinsi, mavqeい, mavzu va ijtimoiy yo‘nalishi, ma’lumot darajasi va farqiga qarab belgilanadi;

- diagnostika usullari va muolajalarining mavjudligi diagnostika usullaridan foydalanganda zarur bo‘lgan ko‘rishning har xil shakllaridan foydalanishni, tashhis qo‘yish uchun sharoitlarning tabiiyligini va sub’ektlarning qiziqishini uyg‘otishni talab qiladi;
- o‘qituvchi faoliyatini o‘rganish izchilligi va uzluksizligi ko‘p qirrali tashxis qo‘yish zarurligini, shu jumladan pedagogik faoliyatning turli jihatlarini, kasbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiyat xususiyatlarini;
- ob’ektivlik prinsipi pedagogik jarayonda juda ko‘p sub’ektiv omillar mavjudligi sababli pedagogikada alohida o‘rin tutadi; o‘qituvchining olingan natijalarga analitik munosabati, olingan har qanday fakti ko‘p marta tekshirish, o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan yuqori talablarini o‘z ichiga oladi;
- bitta ko‘rsatkichni emas, balki rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘plamini o‘rganishga imkon beradigan diagnostika usullaridan foydalanish shartlilagini nazarda tutuvchi diagnostikaga kompleks yondashuv printsipi. Ushbu tamoyil, ayniqsa, bolalarning rivojlanishini o‘rganishda juda muhimdir.

J.Piaje, A.M.Po‘latov fikrlariga ko‘ra, aynan shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, talabalar pedagogik diagnostikaning quyidagi funksiyalaridan foydalanadilar:

- teskari aloqa funksiyasi - ko‘zlangan o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish shakllari va yo‘llarini tahlil qilish;
- maqsad va vazifalarni belgilash funksiyasi - jamoaning taraqqiy qilish istiqbollarini, istiqboliy rejalarini aniqlash;
- taqsimot funksiyasi - jamoa a’zolari o‘rtasida burch va vazifalarni taqsimlash;
- yaratish funksiyasi - talabalarning bolalar bilan muloqot qilishining sog‘lom muhitini tarkib toptirish;
- pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish funksiyasi;
- pedagogik korreksiyalash funksiyasi - bolalar xulqidagi, ta’limiy faoliyati, tarbiyaviy jarayondagi buzilishlarni bartaraf etish vazifasini o‘taydi, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo‘l keladi;
- motivatsiya va rag‘batlantirish funksiyasi - talabalar bolalarning ta’lim olish faoliyatini rag‘batlantirishni, tashqi stimullarni adekvat qabul qilishni nazarda tutadi [9].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllanishiga quyidagilar samarali xizmat qilishini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

- o‘quvchilarining rivojalanish darajasi va dinamik ko‘rsatkichlarini diagnostika qilish va baholash vositalari, usullaridan foydalanish;
- individual shakldagi ta’lim yo‘nalishlarini rejalahtirish va rejaga muvofi q bajarish;

- o‘quvchilarining shaxsiy va yosh xususiyatlarini inobatga olish, individual shakllanish dastur va dasturga yo‘naltirish jarayoni;
- talabalarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini psixodiagnostikaning standartlashtirilgan usullaridan samarali foydalanish;
- har bir o‘qitiladigan fanlar doirasida shakllangan fan va kichik kompetensiyalari, qolaversa, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilishni ta’lim natijalarini baholash.

Diagnostik madaniyat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muloqot va diagnostika faoliyatida namoyon bo‘ladi. Uzluksiz ta’lim jarayonida kasbiy faoliyatga qadriyat, maqsadga muvofiqlik va ijodkorlik kabilarni mujassamlashtiradi.

Diagnostik madaniyatning bir xil darajada muhim hal qiluvchi omili kasbiy va pedagogik o‘zaro ta’sir bo‘lib, uning davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlarini bilish, uning xatti-harakatlarining sabablarini, intilishlarining ichki motivlarini aniqlash uchun asosli ehtiyoj paydo bo‘ladi. Aynan bola bilan o‘zaro munosabat amaliyotida boshlang‘ich o‘quvchi shaxsining temperamenti, motivlari, maqsadlari, xarakteri, kognitiv qiziqishlar darajasi va qabul qilish qobiliyatini, xavotirlanish darajasini o‘rganishni talab qiladigan turli xil pedagogik vaziyatlar, diagnostik vazifalar paydo bo‘ladi.

Diagnostik madaniyatning namoyon bo‘lishini ikki jihatdan ko‘rib chiqamiz: tashqi (ob’ktiv) va ichki (sub’ektiv). Ob’ektiv (tashqi) bu ijtimoiy reja bo‘lib, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z o‘quvchilarini shaxsiy xususiyatlarini bilish, ularning ichki dunyosi haqida ishonchli ma’lumot to‘plash yuzasidan ob’ektiv faoliyat, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanishida ularga hamroh bo‘lish istagi, boshqacha qilib aytganda, o‘quvchilar bilan munosabatlarni o‘rnatish usullarini o‘z ichiga oladi. Mazkur ishonchli fikr-mulohazalarni olish asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bu pozitsiyasi o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va maktab psixologiy bilan munosabatlarning ko‘rinishini sifat jihatidan o‘zgarishiga zamin yaratadi.

Diagnostik madaniyat darajasidagi tashqi xulq-atvor ichki (sub’ektiv) rejaning mavjudligi bilan belgilanadi: bu o‘zini va boshqa odamlarni bilish zarurligiga shaxsiy ishonch (qadriyatlar va ma’nolar), amalga oshirish istagi (kerakligi) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar shaxsining diagnostik maqsadlari mavjudligida aks etuvchi o‘quvchilarining xususiyati haqidagi ishonchli ma’lumotlarga asoslangan pedagogik jarayonni nazarda tutadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyati tarkibidagi tashqi va ichki rejalarining o‘zaro integrativ shakllanishi jarayonini o‘zaro bog‘liq va takrorlanmaydigan deb hisoblash imkonini beradi. Ya’ni, bo‘lajak boshlang‘ich sinf

o‘qituvchilarining diagnostik maqsadlari o‘z-o‘zini bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji sifatida sub’ekt-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning faolligi va bilimga bo‘lgan ob’ektiv ehtiyojini, uning individual xususiyatlardan kelib chiqqan xolda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni talab qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirishning aloqalari, tamoyillari, tendentsiyalari va mexanizmlarini tatbiq etishda o‘rganilayotgan hodisaning sifat jihatidan o‘ziga xosligini aniqlash, uni uch jihatda - universal, xususiy va yagona ko‘rsatish orqali yordam beradi.

Diagnostik madaniyatning umumiy toifasi kasbiy-pedagogik madaniyat bo‘lib, uning mohiyatini o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyati namoyon bo‘lishining turli shakllarini (pedagogik, psixologik, diagnostik, ma’naviy, axloqiy, kommunikativ, texnologik, etnopedagogik) ilmiy tavsiflash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

Diagnostik madaniyat kasbiy pedagogik madaniyatning quyi tizimi bo‘lib, uning barcha asosiy belgilariga egaligi bilan xarakterlanadi. Biz o‘rganayotgan toifaning kasbiy pedagogik madaniyatning ayrim turlari bilan umumiyligini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, kasbiy madaniyatning psixologik, kommunikativ va diagnostik turlari bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni aniqlash diagnostik madaniyatning muhim xususiyatlarini o‘rganish uchun fundamental ahamiyatga ega. Bu holat diagnostik madaniyatning ichki mohiyatini ko‘rib chiqishda, uning nazariy modelini yaratishda ham, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ta’limini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda ham hisobga olingan bo‘lishi lozim. Nihoyat, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning diagnostik madaniyati o‘zining o‘ziga xosligini va uni o‘qituvchining kasbiy pedagogik madaniyatining boshqa quyi tuzilmasi bilan almashtirishning mumkin emasligini belgilaydigan individual xususiyatlar, xususiyatlar va xususiyatlarga ega yagona toifa sifatida ishlaydi. Diagnostik madaniyatning o‘ziga xosligi maqsadlari, mazmuni, tarkibiy vositalari, usullari, texnologiyalari va natijalari bilan belgilanadi. Bularning barchasi diagnostik madaniyatning sifat jihatidan o‘ziga xosligini belgilaydi.

Diagnostik madaniyat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish jarayoniga ta’siri darajasi, ichki va tashqi faoliyat motivatsiyasiga asoslangan kasbiy jarayonni amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liqligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ikkinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirish jarayonining o‘ziga xos mazmunga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Mazkur qoidalar o‘xshash vaziyatlarda, bir xil sharoitlarda, ya’ni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirish jarayonida o‘zini namoyon etib, ular yuqori darajada ilmiy

asosga egaligi, talabalar bilan ham, professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash orqali mustahkamlanadi.

Diagnostik madaniyatning yana bir asosiy xususiyatlarini analistik jihatdan tahlil qilishda ijodiy darajadagi diagnostik faoliyatini qamrab oladi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan tashkil etilgan nazariy-amaliy jarayon uyg‘unligi pirovardida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yanada yetukrok darajada shakllanishini nazarda tutuvchi ilmiy-metodik jihatdan oldindan ko‘ra olish qobiliyatini namoyon etadi. Talaba ilmiy-nazariy jihatdan muammo mohiyatini chuqr anglab yetishiga qaratilgan ish-harakatni tashkil etishi, o‘quvchilararo diagnoktik faoliyatni amalga oshirishi us’hchun sabab-oqibat tamoyili asosida ish tutishi, auto-treninglarni qo‘llagan holda muammoning asl mohiyatini aniqlash va uning ichiga kirib borishga zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni.
4. Aripjanova Alfiya, Halima Kadirova, Gulbakhor Uralova, Iroda Adkhamova. (2023). Mathematical and Statistical Analysis of the Results of Experimental Work on Formation of Diagnostic Culture in Future Primary Class Teachers. Journal of Advanced Zoology, 44(S-2), 1831–1841. Retrieved from <http://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1121>
5. Jumayev M.E. O‘quv jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik madaniyatini tarbiyalash. 13.00.01 pedagogika nazariyasi va tarixi. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.ya Toshkent-1999. 131 b, 30-bet.
6. Kadyrova Kh. Is a mechanism for forming a diagnostic culture in a future primary school teacher// Инновационное развитие науки обрзования. Научно-практическая конференция. Серия дистанционных конференций. Казакстан 2020. 163-164 с.
7. Kadyrova Kh. Levels of formation of diagnostic culture of future primary school teachers// Web of Scientist: International Scientific Research Journal- Impact Factor.7.565 <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/T4BSG> ISSN: 2776-2779 (Volume 2, Issue 12, Dec., 2021

8. Kadyrova X.N. Formation of diagnostic culture in future primary school teachers as a pressing problem// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 6, 2020, Part II ISSN 2056-5852. Progressive Academic Publishing, UK. 74-77 pages. <http://www.idpublications.org/ejres-vol-8-no-6-2020-part-ii> (13.00.00. №3).
9. Po'latov A.M. Talabalar bilimi darajasini prognoz qilish va undan foydalanish metodikasi. Dis. ...ped.fan.nomzodi. TDPU., T –2005. 67
10. Qodirova X.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida diagnostik madaniyatni shakllantirishning innovatsion integratsiyasi// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2020. – B. 332-337 bet (13.00.00. №30)
11. Qodirova X.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diagnostik madaniyatini innovatsion asosda shakllantirish// "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika 23-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materialari. Toshkent. 10/1-qism. 171-172 b.
12. Qodirova X.N. Diagnostik faoliyatni samarali tashkil etish o'qituvchining diagnostik madaniyatini shaklantiruvchi omil sifatida//Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2019. – B. 307-313 bet. (13.00.00. №30).
13. Qodirova X.N. Diagnostik madaniyat – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy komponenti sifatida// "Ilm sarchashmalari" ilmiy-metodik jurnal-Urganch, 2020. –B.84-86 bet (13.00.00. №31)
14. Qodirova X.N. Metodologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda diagnostik madaniyatni shakllantirish. "Farg'ona vodiysi yosh olimlari" Respublika yosh olimlar III hududiy ilmiy anjumani-2019.Namangan. 67-70 bet.
15. Qodirova X.N. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirish masalasi// O'zbekiston oliy ta'limi – innovatsion rivojlanish yo'lida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Qo'qon. 2019/14-iyun. 380-383 b.
16. Qodirova X.N. Pedagogik - psixologik shart - sharoitlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirish. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2022. – B. 210-218 bet. (13.00.00. №20).
17. Алмазова О.В. Психолого-педагогической диагностики. Екатеринбург. Стр.228. 2007.
18. Бондаревская Е.В. Педагогическая культура как общественная и личная ценность //Педагогика. - 1999. -№ 3. -С. 37-42.
19. Валихўжаева Ф.Б. Таалабаларни МТМда болаларга эстетик тарбия беришга тайёрлаш. //Диссертация. Самарқанд. 139 б. 2005.
20. Гришин В.В. Таълим жараёнида психодиагностика усуллари. М., 1990.

21. Е.В.Бондаревской. Введение в педагогическую культуру: Учеб. пособие /Под ред. - Ростов-н/Дону: Изд-во Феникс, 1995. - 234 с.
22. Ерофеева М.А. Система формирования готовности студентов к педагогической диагностике результатов воспитания школьников. Дис....канд.пед.наук / М., 2000.
23. Ибрагимова Г.Н., Чориева Д.А. Мактабгача таълимда педагогик диагностика. З курс талабалари учун ўқув қўлланма. “Нодирабегим” нашриёти. Т., 2021.
24. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений. М., Академия, 2002. 208 с.
25. Исмадиев Я.У. Совершенствование механизмов формирования инновационного менеджмента в системе высшего педагогического образования. 13.00.01-Теория педагогики. История педагогических учений. Дис.я на соискание ученой степени доктора педагогических наук (DSc) Ташкент-2018. 234-с.
26. Колесникова И.А. Педагогическая реальность: опыт межпара-дигмальной рефлексии: Курс лекций по философии педагогики. - СПб.: Изд-во «Детство-Пресс», 2001. - 288 с
27. Леонова Е.Е. Становление и развитие педагогической диагностики в историческом контексте образования и педагогики. Дис....канд.пед.наук / М., 2007.
28. Модель И.М. Профессиональная культура муниципального депутата: Теоретико-социальный анализ. - Екатеринбург: Наука, 1993. - 157 с.
29. Пиаже Ж. Моральное суждение у ребенка Издательство: «Академический проект», 2015.
30. Сафонова С.В. Педагогическая диагностика качества организации образовательного процесса в вузе. Дис....канд.пед.наук / М., 2008.
31. Фадеева О.А. Педагогическая диагностика профессионального становления будущего учителя в вузе. Дис....канд.пед.наук / М., 2004.